

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

3.2022

**научно-теоретический методический журнал
Издаётся с 2001 года**

Urganch – 2022

Romandagi badiiy nutq kompozitsisi qurilishining boshqa romanlardan farq tomonlari, birinchi galda, roviy-persnaj nutqida namoyon bo'lgan. Bayon qiluvchining nutqida biz uysizlik motivi ortidan turli odamlar qurshovi va vaziyatlarga tushib qolgan Jeymning butun ichki olami hamda sujetga jalb etilgan turli toifa odamlarning roviy nutqidagi o'rnini ham tekshirishimiz mumkin. Xususan, Jeym uysizlik va pulsizlik muammosidan boshi qotib, nima qilarini bilmay sarson yurgan kunlarning birida, Medjnikida qolgan radiolasini olib, Tinkxem xonim do'konida yoki Devyniki olib borishni niyat qilib sobiq ijara uyiga boradi. To'g'ri, avval, qo'ng'iroq qiladi, hech kim go'shakni ko'tarmagach, uyda hech kim yo'q ekan, degan qarorga keladi va hali topishirilmagan kaliti bilan eshikni ochib uyga kiradi. U yerda esa bir qo'lida spirtli ichimlik ko'targan yoshi kattaroq erkak turardi. Aynan shu sahnada sujet markaziga ikki kishining konfliktiga oid epizodlar bayoni chiqadi. Rovi-personaj mazkur sahnani nisbatan batafsilroq va to'laroq bayon etadi. Biz Semmini birinchi marta aniq tasvirda kuzatar ekanmiz, uning xarakterida tavakkal o'yinlarga o'chlik borligini, boshqalarni ustidan hukm chiqarishga va odamlarni pul, boylik yordamida sotib olishga urinishni ham ko'ramiz. Bunda uning nutqiga turli badiiy ifodaviy vosita, stilistik usul va psixofiziologik belgilar ham jalb etiladiki, ularsiz roman tili o'z badiiyligini yo'qotgan bo'lar edi.

Xulosa sifatida aytilish joizki, Ayris Myordokning "Tuzoqda" romanida voqelik roviy-personaj tili-dan bayon qilinadi. Natijada badiiy nutq subyektivlik kasb etadi. Shunday bo'lsa-da, roviy asardagi boshqa personajlar xarakterini, ichki olamini tasvirlashda dialogik va monologik nutq orqali ularning ham yorqin tasvirini ifodalashga harakat qiladi.

**Nizomova Shoxista Shodieva (BuxDU Maktabgacha va
boshlang'ich ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi)
ZAMONAVIY SHE'RIYATDA OLOV ANALOGLARINING OBRAZLANTIRILISHI**

Annatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy she'riyatda olov analoglarining obrazlantirilishi haqida fikr yuritilgan. O'zbek she'riyati bir-biridan ajoyib ramzlarga, o'xshatishlarga boy. Ayniqsa, olov tasviri she'riyatimizda o'ziga xos obrazlilikni yaratgan. Misollar, asosan, zamonaviy she'riyatdan olingan.

Аннотация. Узбекская поэзия богата чудесными символами и аналогиями. В частности, образ воды и огня создал уникальные образы в нашей поэзии. В статье рассматривается представление изображений, связанных с водой и огнем, в современной поэзии. Приведены примеры в основном из современной поэзии.

Annotation. This article discusses the representation of fire analogues in modern poetry. Uzbek poetry is rich in wonderful symbols and analogies. In particular, the image of fire has created a unique imagery in our poetry. The examples are mostly taken from modern poetry.

Kalit so'zlar: zamonaviy she'riyat, obraz, badiiy obraz, an'ana, qadriyat.

Ключевые слова: современная поэзия, образ, художественный образ, традиция, значение.

Key words: modern poetry, image, artistic image, customs, value.

Guljamol Asqarova "meni tushunmaysiz" she'rida inson yuragini cho'g' to'la o'choqqa mengzasa, "men" she'rida "Onamga o'choqning boshi Vatandir!!!"

Xalq tilida o'choq so'zi o'rnida ba'zan qo'ra so'zi ham ishlatiladiki, shuning uchun ba'zi she'rlarda qo'raning obrazlantirilishi ko'zga tashlanadi. Bunga Guljamol Asqarovaning "Bayot" she'ridan olingan quyidagi misralarni misol qilish mumkin:

*Ko'hna Bayotlarim uyg'ondi manim,
Dilim qo'rasinda o't yondi manim,
Ko'nglim yomg'irlarda to'lg'ondi manim,
Bizim ko'ngillarda ko'shkimiz bordir.*

Xuddi shu shoironing "zerikish" nomli she'ridan olingan quyidagi misralarda ichida olov yoqish mumkin bo'lgan yana bir narsa – tandir so'zi tilga olingan:

*Qo'llarimga tillolardan zanjir soldim,
Vujudimni qorib erga tandir soldim.
Olov to'lyapti menga...*

"Osokada o'zbek choyxonasi (tadbirkor o'zbek yigitiga)" she'rida Osoka shahrining qoq o'rtasida bunyod etilgan o'zbek choyxonasi, unga tandir ham qurilib, ichiga gurillatib o't yoqilib, kichkina quyoshdek o'zbekning noni yopilgani-yu u yapon havosini qizdirib turgani haqida so'z yuritilgan.

“O‘zbekiston uchun dengiz o‘zingiz” she‘rida bu ko‘hna yurt quyoshli o‘lka bo‘lganligi sababli ichida olov tafti bor qozonga o‘xshatilgan:

*Qozonning ichida otashin taft bor,
Olovning o‘zini ko‘rmaysan biroq.*

Xalq olov timsoli orqali farzand ma‘nosini ham ifoda etgan. Bu bolalarga qo‘yiladigan Oloviddin, Otashboy, gulxan ismlari misolida ham o‘z tasdig‘ini namoyon eta oladi. Lekin, keyinchalik, farzand ma‘nosi olov obrazidan uning atributi bo‘lgan chiroq obraziga ko‘chirilgan. Shuning uchun, ko‘pincha, ota-onalarning o‘z farzandiga to‘ppa-to‘g‘ri “chiroq‘im” deb aytishi kuzatiladi. Bu bilan farzandlarning ota-ona ruhiga isu chiroq qilib turishi odatiga ishora qilinmoqda. Demak, “o‘g‘il yoqqan chiroqni, qiz ham yoqar” maqolining ma‘nosi qiz farzand ham oila qurib, farzand ko‘rar ekan, ota-onasi nomi, chiroq‘i o‘chmasligini ta‘minlaydi.

Xullas, chiroq ko‘chimi, odatda, o‘g‘il va qiz farzandlarga nisbatan teng qo‘llanilaveradi.

Chiroq – olov analoglaridan biri.

*Tog‘larim qayerda, cho‘llarim qani?
Odamlarim, qaylarga ketgansiz yiroq?
Qarshimda tovlangan yo‘llarim qani,
Qaydasan chiroq?
Tugadi!¹
Tugadi hamma olovim.*

Nurga talpinmoq tushunchasida yaxshilikka, yorug‘likka intilish g‘oyasi mujassam. Shoira Zulfiya “Tun” she‘rida tunni allalab oquvchi suv hamda boshi uzra chiroq porlagan bedor shoir obraziga tenglashtirgan. Chiroq – olov yoqiladigan narsa. Elektr chiroqlari paydo bo‘lguniga qadar ota-bobolarimiz chiroq yorug‘idan foydalanishgan. Ayniqsa, kechki bo‘sh vaqtlarda ijod qilgan olim-u shoirlar uchun chiroq yaqin do‘st, qadrdondek tuyg‘u uyg‘otgan. Shuni nazarda tutib, Asqarova quyidagi satrlarini tizgan:

*Bu dunyoda yuragimga firoqdan yaqin do‘st yo‘q,
Bu cho‘lu biyobon ichra Shiroqdin yaqin do‘st yo‘q.
Bora-bora manzilim ne, na o‘zim, na o‘zga bilgay,
Bu yo‘l so‘nggi ko‘rinmaydir, yiroqdin yaqin do‘st yo‘q.
O‘zim yoqdim, o‘zim yondim, parvonalar bo‘ldim,
Shoiringga qalam birlan chiroqdin yaqin do‘st yo‘q.*

Shuningdek, shoira she‘rlarida sham yorug‘iga shaydo parvona obraziga ham alohida e‘tibor qaratilgani va shu asosda uning she‘riy an‘analarni yangi ijodiy jarayonda ham saqlab qolgani namoyon bo‘ladi. Jumladan, shoira “umidsiz qolgan odam” she‘rida o‘zini shamlari so‘ngan hamda olovlari tashlab ketgan parvonaga o‘xshatgan. Ko‘ksidagi orzularini esa olovi o‘chgan bir uyum kulga tenglashtirgan:

*Menam parvonaman, shamlarim so‘ngan,
Olovlari tashlab ketgan parvona.
Bu dunyo raqsiga hayrona bo‘lib,
Ma‘yus yashayapman dalli devona.
Ko‘ksimda bir uyum kuldan bo‘lak yo‘q.*

Shoira “Do‘stimga” she‘rida telba, dalli devona bo‘lib, sevgi yo‘lida, ya‘ni shamning qasdida yurgan parvona sifatida qanotini yomon kuydirganini aytib, qattiq pushaymon cheksa, “Faqat...” she‘rida o‘zini to‘ppa-to‘g‘ri “noshud parvona” deb atab, o‘z xatti-harakatlaridan noroziligini yashirmaydi:

*“Men shundayin noshud parvona,
Shu kul uchun g‘amlar chekdimmi?
Yasholmayman axir har lahza
Kuydirmasam shamda ko‘ksimni.
Anglamabman olovdek yonib,
O‘chganini o‘z gulxanimni.*

Shoira yuragini chaqmoq tekkan osmonga ham tenglashtiradi:

*Yurak chaqmoq tekkan osmon yuziday,
Lekin e‘tiqodim, iymonim butun.*

¹ Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e‘tiqod va marosimlari. T., Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007, 276-bet.

Eridan erta ayrilgan shoira Zulfiya ishqdan bearmon mast bo'lgan o'ttizga etmagan yoshida birdan zarbga uchrab, o'rtanganini "oltingurgut olovisimon, ko'rinmay hijronning dog'ida yondim" deya ta'kidlaydi.

G.Asqarova esa bir she'rida olov yoqish vositasi bo'lgan gugurtni tilga olib o'tadi. Nainki, gugurt bo'lmasa, olovni yoqish qiyin:

*Siz chekmoq bo'lasiz shu so'zni aytib,
Gugurtni izlaysiz paypaslab shu choq.
Mana, yuragimni tutib beraman,
Bir qarang, yuragim cho'g'to'la o'choq.*

Ma'lumki, kelin kelganda eshik oldiga gulxan yoqilib, kuyov kelinni dast ko'targancha olov atrofidan uch marta aylantiradi. Shuning uchun to'y haqidagi she'rlarda, albatta, olov detali tilga olinadi. Tutun ramzi esa g'am-kulfat ma'nosini anglatib keladi.

*Sendan menga xotira bo'lib
Bir o't qoldi,
Tutunlari kirdi ko'zga,
Ko'zlari toldi.*

Ushbu she'rdagi tutun va butun so'zlari faqat qofiya yaratish uchun keltirilmagan, balki bunda tutun dil tubidagi g'am-g'ussa ramzini ifodalashga ko'mak bergan.

Olov va uning analoglari vositasida, ko'pincha, sevgi kechinmalari, qalb hislari, oilaviy turmush farovonligi, unda farzand kamoli, hayot yo'lidagi intilishlar, Vatanga muhabbat tuyg'usi ifoda etilgani kuzatiladi. Olov, hatto go'zallikni ham ifodalashi mumkin:

*Olov qiz deb atashsa agar,
Ko'zlaringga boqardim hayron.
Lekin qancha izlamay har gal,
O'tdan senda topmasdim nishon.*

Taxmin qilish mumkinki, qadimgi abstrakt tushunchalar, umuman, yot bo'lgan odamlar qarshi jinsga bo'lgan kuchli hissiyotni kasal bo'lib qolganlarida, harorat ko'tarilishini ichimda olov yonaypti deb, tassavur qilganlar, balki ishonganlar. Muhabbat, inson ichki hissiyotlarining o't-olovga o'xshatilishida ana shunday ishonchlar tarixiy asos rolini o'ynagan.¹

Gulxan ham olov so'zining gradunomik shakllaridan biri. Olov, gulxan, ko'pincha, "raqs" tushishi aytilib, o'ziga xos tashxislantiriladi:

*Gulxan yonadi –
Raqs tushasan "qars-qars".
Bo'yingga qo'l soladi
Allaqaydan kelgan mast.*

Usmon Azimning "lo'li qo'shiqlari"dan olingan ushbu misralarida lo'li raqsi olovning turli ranglar taratib, har xil tovushlar chiqarib yonish holatiga o'xshatilgan.

Sahro, garchi olov yonib turgan joy bo'lmasa-da, olovga burkangan, hamma narsa bag'rida yonib yotgan joyga tenglashtiriladi:

*...Sahro – ufqlarida yugurgan kenglik...
...Sahro – quyosh gulxan yoqqan maydon*

Muhammad Yusuf "Vatanim" she'rida olovlarga sachragan Muqanna ismini talmeh keltirgan. Afsonalarda aytilishicha, Muqanna yov qo'lga taslim bo'lmaslik uchun o'zini va yaqinlarini olovga tashlagan. Chunki u zardushtiylik diniga e'tiqod qilgani uchun o'zini olovdan yaralgan deb hisoblagan. Jaloliddin Manguberdi esa o'zini va yaqinlarini yovga berib qo'ymaslik uchun Amudaryoga tashlagan.

Muhammad Yusufning "Olisdagi qadrton" she'rida so'z otirilgan o'qqa, bag'irni yoqar cho'g'ga o'xshatilgan.

Ko'ngil – hayotga ishq olovi yonib turgan joy sifatida talqin qilinishi azaliy poetik an'analardan biridir. Agar ko'ngildagi olov o'chsa, o'rnini kul bossa, inson yo'lini yo'qotib qo'yadi. Qattiq tushkunlikka uchraydi. Bunda ko'ngildagi olov insonning kelajak haqidagi orzu-istaklarini, maqsad-intilishlarini o'zida ramziy ifodalab keladi.

*Suv ichgan daryosi cho'l bo'lib oxir,
Rostlari yolg'onga qul bo'lib oxir,*

¹ Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. T., "O'qituvchi", 1994, 312-bet.

*Kangluning olovi kul bo'lib oxir,
Xo'rsinib-xo'rsinib keladi umrim.*

Ba'zida hayotning issiq-sovug'i muz va olov ko'chimi bilan beriladi:

*Muzu olovlarga kiramiz kulib,
Bir yonda Qizilqum, bir yonda Sibir...
Faqat yuraklarga boradi to'lib,
Yuksak falaklardan to'kilgan shivir.*

Yuqoridagi she'riy misralarda muz va olov, issiq cho'l Qizilqum va sovuq hudud Sibir so'zlari mantiqiy zidligi asosida tazod san'ati yuzaga kelayotgan bo'lsa, navbatdagi misralarda sham yonishini ochiq derazadan kirayotgan elvizakning o'chirishi, ya'ni olov bilan shamol zidligi tasviri ham tazodga asoslanmoqda:

*Sham yonar. Deraza ochiq elvizak.
Pirillar jonsarak kapalak-xona.
Tunning sharpasidan dasturxon tuzab,
Yorug'lik mavjini ichdik shohona.*

Xullas, o'zbek she'riyatida olov kultiga aloqador qadimgi xalq qarashlarining o'ziga xos obrazli tasvirda berilishi kuzatiladi. Ularni alohida o'rganish esa badiiy tafakkurning tadrijiy takomilini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bu orqali mifologik tafakkurdan poetik tafakkurga ko'chish yo'llari aniqlanadi.

Dusanova Tozagul Rasulovna (NavDPI mustaqil tadqiqotchi; e-mail: tozagul dusanova_1971@mail.ru)
“MAHBUB UL-QULUB” ASARINING IRFONiy MOHIYATI VA BADIiyATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning pandnoma ruhidagi “Mahbub ul-qulub” asaridagi irfoniy-tasavvufiy qarashlarining mazmun-mohiyati tahlil etilgan.*

Аннотация. *В данной статье анализируется содержательная сущность ирфанско-суфийских взглядов Алишера Навои в произведении “Махбуб уль-Кулуб” в духе нравовучения.*

Annotation. *This article analyzes the substantive essence of the irfan-sufi views of Alisher Navoi in the work “Mahbub ul-Kulub” in the spirit of morality.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, “Mahbub ul-qulub”, tasavvuf, pandnoma, nasihatnoma.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, “Махбуб уль-Кулуб”, суфий, нравовучение, наставление.*

Key words: *Alisher Navoi, “Mahbub ul-Kulub”, Sufi, morality, instruction.*

Kirish. Alisher Navoiy millatimizning faxri, fasohat mulkining sultoni sifatida jahon madaniyatida, adabiyotimiz durdonalarida, xalqimiz ong-u shuurida avliyosifat inson bo'lib, e'tibor va e'zoz topib kelmoqda. So'nggi yillarda tez-tez tilga olinayotgan ikki dunyo saodatiga erishmoq jumlasini aynan Hazrat Navoiyga xos va mosdir.

Shoir asarlarining asosiy manbalari ilm va ma'rifatga asoslangan hikmatlardir. Islom tasavvufining manbalari nur-u ziyosidan jilvalangan shoir asarlarining har bir misrasi haqiqat manzaralarining ifodasi nuqtayi nazaridan o'rganilishi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov o'zbek mumtoz adabiyotimiz namunalarini tasavvuf va badiiy ijod kesimida o'rganishni mustaqillikka erishgan ilk yillarimizdanoq ilgari surar ekan, tasavvuf ta'rifi xususida to'xtaladilar. “Tasavvuf diniy e'tiqod, hikmat (falsafa), badiiy ijod omuxtaligidagi hissiy-tafakkuriy ta'limot bo'lib, ilohiy ishq bayonnomasidir. Shuning uchun bo'lsa kerak, tasavvuf she'riyati hozir ham qalblarni larzaga keltiradi, insoniylik haqiqatlarini ochib, ongu shuurimizga bahorning toza havosiday ta'sir etadi, ogoh etadi.” Tasavvuf – axloq va insoniylikdir.¹ Demak, Alisher Navoiy hazratlari ham inson kamolotiga eng to'g'ri yo'l axloq va hikmat ekanligiga diqqat etganlari badiiy ibratdir.

Asosiy qism. Navoiy – orif, irfoniy bilimlar sohibi hisoblanadi. “Mahbub ul-qulub” asari Alisher Navoiy irfoniy-tasavvufiy qarashlarining tajallisi bo'lib, asarning ikkinchi qismidagi 10 ta bobda Naqshbandiya sulukidagi 10 ta maqomatning asl mohiyati, ilohiy haqiqatlari to'la ochib berilgan.

Tasavvufiy adabiyotning badiiy ifodasi muqaddima boblarda basmala, hamd, asmo'i husna, munot, na't, me'rojnom va chor yorlarning tavsifiga bag'ishlangan boblarning mavjudligi bilan xarakterla-

¹ Комилов Н. Тасаввуф. Т., “Movarounnahr” – “O'zbekiston”, 2009.

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA

Жураева Умида Юнусалиевна. Функция карлемана для полигармонических функций для некоторых областей в R^m	3
Шаропов Уткиржон Баходирович. Образование внедренных дефектов на поверхности кристаллов Si(111) и SiOx при распылении ионами.....	7
Эшпўлатов Бобир Худойбердиевич. Распространение собственных волн в двухслойной вязкоупругой среде.....	12
Seytov Shavkat Jumaboyevich. Dynamics of the Populations Depend on Previous Two Steps.....	17
Safarbayeva Nigora Mustafayevna. Function in Mathematics.....	22

FALSAFA

Jumaniyozova Sabohat Bekturdievna. Falsafiy ta'limotlarda antrop tamoyilning talqinlari tasnifi.....	24
Norova Malika Fayzulloevna. Sayfiddin Voxarziyning bilishga oid qarashlari.....	27
Турсунов Лочин Эркинович. Ёшларда фуқаролик маданиятини шакллантириш хусусиятлари.....	32
Абдукаримова Гулчехра Баратовна. Герентологиянинг ижтимоий-фалсафий хусусиятлари.....	37

TILSHUNOSLIK

Ашурова Зулхумор Шодиевна. Европа ва россия тилшунослигида лингвопоэтика масалаларининг тадқиқ этилиши.....	41
Kalandarov Aybek Ruzimbayevich, Bekchanova Xushbaroy Jumanazarovna. Ingliz va o'zbek tillarida stativlik kategoriyasining o'rganilishi.....	44
Уралов Азамат Бегнарович. Морфологик бирликларнинг пайдо бўлиш йўллари, бойиш манбалари.....	47
Исакова Гўзалхон Неъматовна. Қанотли сўзларда стилистик дистрибуция ходисаси.....	52

ADABIYOTSHUNOSLIK

Норов Отажон. Ислоний ғоялар мотиви ва ҳадисларнинг шеърый талқини.....	55
Юлдашева Дилноза Бекмуродовна. Дастхатлар – эпистоляр жанрнинг бир кўриниши.....	59
Rasulova Gulbahor. Ayris Merdokning "Tuzoqda" romanida badiiy nutq masalasi.....	62
Nizomova Shoxista Shodievna. Zamonaviy she'riyatda olov analoglarining obrazlantirilishi.....	65
Dusanova Tozagul Rasulovna. "Mahbub ul-qulub" asarining irfoniy mohiyati va badiiyati.....	68

PEDAGOGIKA

Madaminova Kamila Nuredinova, Yaxshimuratov Murod Rajapboy o'gli, Ataulayev Zokir Maqsudovich, Dushamov Dilshod Azadovich. "Pirrol va uning hosilalari" mavzusini o'qitishda interfaol metodlarning qo'llanilishi.....	73
Allaberganova Muyassar Rimberganovna, Olloberganova Muyassar Davlatboy qizi, Ravshanqulov Abbas Ravshanqul o'g'li. Ta'limda iot ilovalarining roli.....	75
Xayitov Jonibek Xolboboyevich. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasi.....	78
Raximov Azad, Atajanov Sardorbek Ajdar o'g'li, Jumanova Moxira Zoirovna. "Bodring yetishtish agrotexnologiyasi" mavzusida yangi pedagogik texnologiyalar asosida amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.....	81
Xolmirzayeva Sayyora. O'zbek tili fanini o'qitishda idrok xaritasini qo'llash.....	83
Kadirova Feruza Xikmatullaevna. Ingliz tilini o'qitishda veb-texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari.....	86
Muxammadiev Komil Burxonovich. Talabalar jismoniy tayyorgarlik darajasining o'sish dinamikasi.....	88
Ибрагимов Аъламжон Амриллоевич. Когнитив компетентлик – ўқитувчи узлуксиз касбий ривожланишининг бош омили.....	91
Турумбетова Замира Юсупбаевна. Ёшларни мактабдан ташқари машғулотлар орқали ижтимоийлаштиришни ташкил этиш бўйича хорижий тажрибаларга таяниш.....	97